



## QATAG'ON SIYOSATI: MOHIYAT, SABAB VA OQIBAT

Xolmo'minov Akbar Nurilla o'g'li,  
TDSHU TMTTU mutaxasisligi  
II bosqich magistranti.  
Telefon: 998909806934

Elektron pochta: [akbarxolmuminov07@mail.ru](mailto:akbarxolmuminov07@mail.ru)  
Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. Saidov Sh.J.

**Annotatsiya:** mazkur maqolada O'zbekiston SSRda XX asrning 30-yillarida amalga oshirilgan qatag'on siyosati hamda bu jarayonni yuzaga chiqargan omillar, mavjud ijtimoiy-siyosiy holatlar, shuningdek, qatag'on siyosatining jamiyat mafkurasida qoldirgan oqibatlari talqin etilgan.

**Kalit so'zlar:** "Turkistondan O'zbekiston SSR" sari, industrlashtirish-kollektivlashtirish-madaniy inqilob, quloq-surgun-qatag'on, "beshinchi kalonna".

So'ngi yillarda Sovet hokimiyatining qatag'on siyosati tarixiga qiziqish va bu boradagi tadqiqotlarda o'ziga xos yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Qatag'on tushunchasi va siyosiy jarayonning mohiyatini bugungi kunga qadar yaratilgan adabiyotlarda turli xil qarashlar bilan ifodalangan bo'lsa-da, u qarashlar umumfikrlarda o'xshash kantekslarda namoyon bo'ladi. Ya'ni, tadqiqotda yondashuv va uslubiyat jihatdan bir necha yo'naliishlar – davriy, mavjud geografik holat va hududlar kesimida o'xshash hamda farqli jihatlarni ko'rib o'tilmoqda.

XX asrning 20-yillarida Turkiston mintaqasida katta hududiy va geografik o'zgarishlar yuz berdi. Buxoro amirligi va Xiva xonliklarining tugatilishi, keyinchalik olib borilgan milliy hududiy chegaralanish bu kabi jarayonlarda alohida ahamiyatli holat edi. Bunday hududiy o'zgarishlar 1930-yillarda ham muntazam olib borilgan. Inqilob hamda fuqarolar urushi yillaridagi zo'ravonlik, vayronagarchilik O'rta Osiyo manzaralarini nechog'lik o'zgartirgan bo'lsa, sovet siyosati ham undan kam ta'sir ko'rsatmadı. Sovetlar olib borgan siyosat va uning tashviqoti o'z samarasini bermay qolmagan. Turkistonliklar birgina milliy hududiy chegaralanishni "bayram qilib kutib olishgan". Bu o'z navbatida turli miting va namoyishlar ko'rinishida bo'lib o'tgan. 1930-yillar boshlaridagi O'rta Osiyo



1917-yildagi holatidan butkul farqli makon bo‘lgan. Mazkur davrda Sovet Ittifoqi hali siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaif hamda davlat hokimiyati kuch ishlatish yo‘li bilan o‘z ichki xavfsizligini mustahkamlab bormoqda edi. Bu kabi zo‘ravonlik esa o‘z navbatida O‘rta Osiyoda muqobililikni yo‘q qilgan [1, b.10]. Bugungi kundagi turli davlat organlari va tashkilotlarning arxivlaridagi hujjatlarni o‘rganish cheklangan holatda ekanligi bu davr tarixini to‘laqonli ochib berishda o‘ziga xos to‘sislardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘z navbatida Sovet davlati ilk yillarda amaliyotga joriy etgan korenizatsiya siyosati keyinchalik aksincha uni yoqlab chiqqanlar uchun xavfli ko‘rinishga aylanib borgan [1, b.26]. Partiya, ayniqsa OGPU nazdida korenizatsiyani dalil talab etish “mahalliychilik” bilan teng edi. Aslida millatchilik, mahalliychilik, mahalliy kadrlar va til masalasi kabi nom yoki siyosat ham sovet davlatining mahsuli. Bu orqali xalq va mahalliy kadrlarni chalg‘itish maqsad qilingan. Bu jarayon pirovardda ham shunday yakun topdi. Bugungi kunda biz tarixiy jarayonlarga baho berishda “bosmachilik”, “mushtumzo‘r”, “qulqoq” yoki shu kabi “ayblar” ham sovet davlatining jarayonning shunday nomlanshi va jazo “mashinasi”ni yurgazib borishdagi amaliy harakati. Shu o‘rinda bir savol yuzaga chiqadi; ayni shu nom va jarayon aslida qanchalik haqiqat? Bunga javob turli xil bo‘lishi tabiiy. Tadqiqot nuqtai nazaridan kelib chiqib aytish mumkin-ki, xalq bu vaqtda ikki toifaga bo‘linib qolgan edi. Ya’ni, bu jarayonni ikki kontekesda ko‘rish mumkin. “Bosmachi” yoki “mushtumzo‘r”lar bir toifada xalq tomonda bo‘lib kurashgan ongli millatparvar kishilar sifatida, ikkinchi tomondan xalqni talagan va kuch hamda zo‘ravonlik olib borgan ongsiz, o‘z davrida yirik yer-mulk egasi bo‘lgan kishilar yoki mulkdorlar qo‘lida ishlagan oddiy xizmatchilarni ko‘rsatish mumkin. Bunday toifadagi kishilarni to‘liq tarzda millatparvar yoki xalq dushmani deb atay olmaymiz. Chunki mavjud tuzum va sharoit buni yuzaga chiqardi. “Bosmachi” va “mushtumzo‘r”lar sovetlarga qarshi kurash olib borishganligi bu bolsheviklar tomonidan atay uyushtirilgan jarayon yoki aksi ekanligini arxiv manbalarini chuqur o‘rgangan holda xulosaga kelish maqsadga muofiq. Hujjatlarni o‘rganishda ham doimo tanqidiy munosabatda bo‘lish lozim. Sovetlar yuqoridagi “ayb”lari bilan qamalgan kishilarning hujjatlarini soxtalashtirgan holatlari ham mavjud. Umuman olganda “bosmachilik” yoki “mushtumzo‘r”larning paydo bo‘lishiga xalqqa ko‘rsatilgan zulm, aholining yashash sharoitining keskin yomonlashuvi va ocharchilik sabab bo‘ldi.



XX asr 30-yillar boshlarida Sovet davlatining qabul qilgan qaror, buyruq va ko'rsatmalari ortidan ko'plab kishilar siyosiy zo'ravonlik bilan boshqa o'lkalarga surgun qilinib, o'z yurtlaridan, qarindosh urug'laridan, o'zbek tili, an'analarini, urchodatlari muhitidan judo etilgan [2, b.4]. "Mushtumzo'r'larga qarshi kurash esa Oktyabr to'ntarilishining dastlabki vaqtlaridan boshlangan. Ularga tegishli mol-mulk va ishlab chiqarish vositalari musodara etilgan. Bu davrida birgina partiya a'zolari emas, balki butun xalq qatag'on obyekti bo'lган. Qishloq aholisi yoki dehqonlar qatag'onga uchragan. Sovet hukumatining XX asrning 30-yillarida amalga oshirgan surgun hukumatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va millatlararo munosabatlarini hal qilishdagi asosiy omillaridan biri sifatida qaralgan. Bu hol davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan [3, b.85]. 1930-yilning 2-fevralidagi OGPUning maxfiy buyrug'ida quloqlar aslida kimlar ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Unga ko'ra "quloqlar – partiya va hukumatning xo'jalikni ijtimoiy qayta qurilishiga qarshi ta'sir ko'rsatuvchilar, faol oq gvardiyachilar, sobiq banditlar, jamoaviy sobiq aksilingqilobchilar, quloqlar, diniy ulamolar, ruhoniylar, boylar, sudxo'rkarlar, savdogarlar, yirik mulk va yer egalaridir" [3, b.116]. Sovet davlati xalqning o'ziga to'q qismini "mushtumzo'r"lar yoxud "quloq"lar deb e'lon qildi va ularni sinf sifatida tugatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi [2, b.34]. 1930-yillarning boshlarida qishloqda "quloq"lashtirish jarayoni boshlanganda nafaqat o'ziga to'q, mol-mulkka ega dehqonlar, balki o'rtahol, ayrim hollarda esa badrak xo'jaliklarga mansub kishilar ham "mushtumzo'r"lar sifatida surun qilingan [2, b.7]. 1930-yil 11-yanvarda "Правда" gazetasida "Mushtumzo'r"larni sinf sifatida tugatish kun tartibiga chiqdi", degan maqola chop etiladi. Shu yilning 30-yanvar kuni Siyosiy byuro VKP (b) MKning "Yoppasiga jamoalashtirish tumanlarida "mushtumzo'r" xo'jaliklarni tugatish tadbirleri to'g'risida"gi qarorni tasdiqlaydi. Bu qarorga ko'ra "mushtumzo'r'larga tegishli ishlab chiqarish vositalari, mollar, uy-joylar, qishloq xo'jalik mahsulotlari musodara etilishi lozim edi. "Qulqlashtirish" uch toifaga bo'lindi va ular o'z navbatida qamoqqa olinishi, olis va yaqin hududlarga oila a'zolari bilan birgalikda jo'natilishi rejalashtiriladi. Sobiq "quloq"lar keyinchalik surundan qaytib kelgan bo'lishsada, ammo ularga o'sha davrda qabul qilingan rasmiy taomilga ko'ra o'z qishloqlari (hududi)da yashash huquqi berilmagan. Ularga bosilgan "quloq" degan tamg'a uzoq vaqtлага qadar bu kishilarning mustaqil yashashlari imkonini bermagan [2, b.20]. Ular



vatanlariga qaytib kelishgandan keyin ham sovet davlatining dushmanlari sifatida munosabatda bo‘lingan. “Quloq” sifatida ayblangan yoki jazoga tortilgan kishilarning bolalari ham o‘z yurtlarida ham asosan qora mehnat bilan shug‘ullanganlar. Kamdan kam kishilargina oliv o‘quv yurtlarida o‘qish nasib etgan.

Kollektivlashtirish oqibatida xalq harakati va qo‘zg‘alonlar yuzaga kelgan. Ammo hukumat bunday jarayonlarda qulqlarni sinf sifatida yo‘q qilish yo‘lidan boradi. Zo‘rlik bilan amalga oshirilgan kollektivlashtirish sovet tuzumining oddiy yer egaligiga, dehqonlarga, ziyorilar, din xizmatchilari (dindorlar)ga bo‘lgan adolatsiz urush edi. Buning natijasida minglab kishilar o‘zlari yashab turgan joylaridan quvildi, badarg‘a qilindi, qatag‘on qilinib, ayrimlari o‘lim jazosiga hukm qilindi. Bu urush nafaqat ijtimoiy, ruhiy, mafkuraviy va iqtisodiy zarar jihatdan katta fojalarga olib kelgan [3, b.45-46]. Quloq qilinganlar o‘z navbatida otuv yoki yangi o‘zlashtiriladigan yerkarta surgun qilinishi bilan jazolangan.

Bu davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri aynan hukumat e’lon qilgan “madaniy inqilob”da namoyon bo‘ldi. Natijada ko‘plab ziyorilar qatag‘on siyosati iskanjasiga tushib qoldi. 1937-1938-yillardagi “katta terror”da mahalliy hokimiyat organlari rahbar va vakillari ham katta xissa qo‘shganliklari, shuningdek, unga tashqi kuchlarning ham qo‘li borligini inkor qilib bo‘lmaydi. O‘z navbatida bu ishlar markaziy hokimiyatda bir inson boshqaruvi va xohish-irodasi bilan olib borilgan. O‘zbek ziyorilarining qatag‘onida hech qanday o‘ziga xos jihat yo‘q edi. OGPU bu ssenariyni avvalroq – 1929-yilda Ukrainada qo‘llagandi. Keyingi o‘n yillikda OGPU/NKVD bunday “fitnalarni” deyarli barcha respublikalarda fosh etdi. OGPU va partiyaning fikricha, bu davrda O‘zbekiston SSRda sovet hokimiyati uchun eng katta xavf o‘zbek millatchiligi bo‘lgan. Qatag‘onlik ziyorilar orasida “sukunat qaror topishi”ga olib kelgan. Jazoga uchramaganlarning vazifasi hali yo‘qotilmagan narsalarni saqlab qolish va qayta tashkil etish bo‘ldi.

1937-yildan boshlab “xalq dushmanlari”ni izlash, ularni qamash va otish kompaniyasi yana avj oladi. 1937-1938-yillarda qatag‘on qilingan yurtdoshlarimizning yaqinlari ham qatag‘on qilinadi. Ular orasida ko‘plab xotin-qizlar ham bor edi [4]. Ularning birdan bir aybi o‘sha vaqtarda yuqori mansabda ishlagan insonlarning yaqinlari bo‘lganliklari yoki o‘zga yurtlarda ta’lim olganliklari bo‘ldi.



Huquqiy jihatdan SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari sovetining 1934-yil 1-dekabrda qabul qilingan qaroriga asosan sud jarayonlarini o'tkazish tartib-qoidalari belgilab qo'yilgan va bu keyinchalik tayyorlangan ro'yxatlar bo'yicha qamoqqa olishga keng yo'l ochib bergen. Bu qonun hujjatidan norozi bo'lgan mahbuslarni shikoyatnama yozish huquqidan ham mahrum qilgan. Shu masalalar yuzasidan chiqarilgan hukm esa zudlik bilan ijro etilishi lozim deb belgilangan. Siyosiy byuroga taqdim etilgan ro'yxatlar NKVD tomonidan markaziy apparat bo'limlarida ham mavjud bo'lgan. Ular regionlardan markazga yuborilgan materiallar asosida va mazmunan qamoqqa olinuvchi har bir kishining ism-sharifi, u haqidagi to'la ma'lumotlar, qilgan aybining mohiyati va boshqalar asosida shakllantirilib borilgan. Markazda esa olingan ma'lumotlar o'r ganilib chiqilgan va ular asosida ro'yxatdagi shaxslarni birinchi (otuv), ikkinchi (10 yil qamoq yoki surgun) va uchinchi (5-8 yil qamoq) kategoriyalarga ajratilgan. Oliy sud harbiy kollegiyasi qoshida tuzilgan "uchlik" mahbuslarga oid yig'ilgan hujjatlarga atigi 5-10 daqiqa vaqt ajratishgan. Bu sayyor sessiyalar yig'ilishlarini rasmiyat chilik uchungina o'tkazish oddiy holat bo'lib qolgan [5, b.3-5]. Joylarda Ichki ishlar xalq komissarlari SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi ko'rib chiqilgan tergov ishlarini tugatib ayblov xulosalarini tayyorlaganlarida mahbuslarga beriladigan jazo choralarini avvaldan belgilab qo'yilishi odat tusiga kirgan. Shu maqsadda joylarda ichki ishlar huzuridagi "uchlik"lar Harbiy kollegiyasida ko'rib chiqiladigan mahbuslar ro'yxatini tuzganlar. Ushbu ro'yxatlarda sudga berilayotgan shaxslarning ismi va familiyasi, qat'iy jazo choralarini ko'riliishi to'g'risidagi takliflar ham belgilangan [6, b.22]. 1938-yil oktyabrda Toshkentda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor yig'ilishlari formal, yuzaki sur'atda o'tkazilgan [6, b.31]. 1937-1938-yillardagi siyosiy qatag'onning ildizi Oktyabr to'ntarilishidan keyin hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklarning mafkuraviy qarashlari va proletariat diktoturasi g'oyalariga borib taqaladi. 1930-yillardagi siyosiy qatag'onlar Sovet davlati va bolsheviklarning o'z maqsadlariga tezda erishishining eng oson, ishonchli hamda shavqatsiz usuli edi. 1930-yillarda Sovet hokimiyati mamlakatni to'la nazorat qila olmaganligi, urush xavfi doimiy avj oldirishdagi omillardan yana biri urush xavfi bo'lganligiga ham asos bor [3, b.113].



Sovet davlati o‘z vaqtida “beshinchi kolonna” kabi atamani amaliyotda qo‘llagan. Bu atama o‘z mazmuniga ko‘ra mamlakat ichkarisidagi turli xildagi qo‘poruvchilik harakatlari orqali dushman kuchlarining g‘alabasini ta’minlovchi kuchlar sifatida talqin etiladi [6, b.336]. SSSRda bu atamani jazoga hukm etilganlar va otib yuborilganlarning katta qismiga nisbatan qo‘llanilgan. Umuman olganda qatag‘on siyosati bir tomondan Stalin hokimiyatini mustahkamlash, ikkinchi tomondan esa yaqinlashib kelayotgan urushda mamlakat ichkarisida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muholifatlardan tozalash siyosati sifatida namoyon bo‘ladi. 1937-yil 24-iyundagi plenum O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari A.Ikromovning Moskvaga telegramma bilan respublika hukumati rahbari “millatchilik va aksilinqilobchi terrorchilar” bilan aloqasi borligida gumon qilinayotgani haqida qattiq turib qilgan iltimosi bo‘yicha O‘zbekiston SSR XKS raisi F.Xo‘jayevni partiyadan o‘chirishga va ishini NKVDga topshirishga qaror qiladi [6, b.374]. Bu kabi jarayon bir biriga zanjirdek bog‘langan edi. Ya’ni, mazkur davrda markaz (Moskva)da ham yoki O‘z SSR hukumati va uning quyi pog‘onalarida ham bir shaxs (jamoa) ikkinchi shaxs (jamoa)ni turli ayblar bilan aybdor deb topgan. Vaqt o‘tib bu shaxs (jamoa)ni ham biron ayb bilan yo‘qotish amaliyoti anchayin “urf” bo‘lgan edi. Maqsad kelgusida hujjatlar o‘rganilganida haqiqiy “aybdor”larni yuzaga chiqarmaslik yoki daliliy ma‘lumotlarni bir biriga qarama-qarshi qo‘yish edi. Qatag‘on siyosati bu davrda birgina davlat miqyosida amalga oshirilgan emas. Qatag‘onlik davlatning ichki xavfsizligini ta’minlash yuzasidan o‘tkazilgan jarayon sifatida tarixda qoldi. SSSRdagi “beshinchi kolonna” bilan bo‘lgan kurash Buyuk Britaniya, Fransiya yoki AQSHdagiga nisbatan mislsiz og‘ir sharoitda o‘tgan [6, b.410]. I.Stalin o‘zining asosiy maqsadlari sifatida ishchilar sinfini ko‘tarish, ularning ahvollarini yaxshilash, mustahkamlash orqali sotsialistik davlatni mustahkamlashning yo‘li sifatida bayon etgan.

1937-1938-yillardagi “katta terror”ning yuzaga kelishida mahalliy partiya rahbarlarining o‘rni va roli katta ahamiyat kasb etgan [6, b.402]. 1937-1938-yillardagi “katta terror” mahalliy kadrlar tashabbuslari va ularning qatag‘on qilinishi zarur deb topilganlar sonining oshirilishiga ruxsat so‘ralishi evaziga ham uning kamrovi keng tus olganligi asoslar sifatida ko‘rsatib o‘tiladi [7, b.493]. Ammo masalani boshqa tomondan ham nazar solib, o‘rganib ko‘rish lozimdir. Partiyada yuqori mansabga ega shaxslar o‘z “ishlari”ni o‘ziga xos



tarzda yashirish (niqoblash) va kelgusida bor ayblarni quyi (mahalliy) bo‘g‘indagi kadrlar zimmasiga yuklashni nazarda tutishgan. Turli xil suiqasd va markazlar ishlarini tayyorlashda birdan-bir asosiy axborot manbai chaquv bo‘lgan. Qatag‘ondan “karera” sifatida foydalanishga jon-jahdlari bilan kirishganlar ko‘p bo‘lgan [6, b.396].

XX asrning 30-yillaridagi siyosiy vaziyat o‘lkada siyosiy qarama qarshiliklarning chuqurlashuviga, mulkchilik, erkin bozor, savdo-sotiq va ishlab chiqarish tarmoqlarining taqiqlanishiga, qishloq ommasining davlatga qaramligining kuchayishiga va hududlarning ham siyosiy-ma’naviy qiyofasining o‘zgarishiga olib keldi. Qatag‘on siyosati bu mohiyati jihatidan turli talqin etilsada, ammo bu ish Sovet davlatining o‘z xalqiga nisbatan amalga oshirgan qirg‘ini (genosid)dir [8, b.67]. Muhim siyosiy jinoyatlarda ayblanayotganlar bergen ko‘rsatmalar ham muhim ma’lumotlarni beradi. Ularda o‘z-o‘zini oqlash, partiyaga sodiqligini isbotlash, qilmishlarini izohlash, hatto siyosiy politsiya bilan muzokara qilishga urinishlar uchraydi. Ammo ularni yoritishda va foydalanishda tarixchilar iloji boricha tanqidiy ko‘z bilan masofa saqlagan holda o‘qishi kerak [1, b.27].

Milliy o‘zlikni anglash, haqqoniy tarixni tiklash borasida XX asr 30-yillarida nohaq qatag‘on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat, san’at va ko‘plab boshqa oddiy kasb egalarining nomlarini tiklash, shuningdek, ularning xotiralarini abadiylashtirish, yosh avlod vakillarida vatanparvarlik ruhini tarbiyalash borasida muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Qatag‘on siyosati natijasida xalqni qo‘rquvda ushlab turish evaziga uning irodasini sindirish, ma’naviyati va madaniyatini yo‘q qilishga harakat qilindi. Bu jarayonga aholining barcha soha vakillari qamrab olinadi [1, b.132]. Mamalakatda olib borilgan industrlashtirish, kollektivlashtirish jarayoni barobarida soliqlar miqdorining o‘sib borishi, barcha mulklar davlat tasarrufiga o‘tkazilishi xalqning turmush darajasining keskin pasayishiga olib keldi. GULAG – umuman lagerlar tarmog‘i ayni tekin ishchi kuchidan foydalangan holda iqtisodiy sanoat zonalarini tiklash va rivojlantirishga qaratilgan ham edi. O‘z navbatida qatag‘on siyosati haqiqiy jinoyatchi bilan birga shu jinoyatdan bexabar boshqa kishilarning ham nohaq jazolanishiga, ijtimoiy hayotda shubhalanish va chaqimchilik hollarining avj olishiga, qatag‘on qilingan insonlarning tekin ishchi kuchi bo‘lishiga olib keldi [9, b.16]. Targ‘ibot-tashviqot tufayli o‘zligini yo‘qotgan, o‘z hayoti uchun ko‘rqib qolgan odamlar o‘z qo‘snilari, hamkasblari va hatto oila a’zolari ustidan



ham turli ayblar, chaquvlar orqali NKVDga murojaat qilganlar, terror millatni buzishga va uning qaysidir ma'noda tanazzuliga ham olib keldi [7, b.23]. Ijtimoiy hayotida hadik, qo'rquv muhiti yuzaga keldi va odamlar bir-birini sotish, turli g'arazli niyatlarini shu vosita bilan amalga oshirish orqali o'zlarini sho'ro hukumatining "sodiq quli" qilib ko'rsatish imkoniyati paydo bo'ldi. Shu yo'l bilan o'z xavfsizligini, o'z hayotini saqlab qolish oddiy holatga aylanib bordi [10, b.40]. Qatag'on obyektiga deyarli barcha ijtimoiy qatlarni, ayrim taniqli shaxslar, ijtimoiy guruh, boy dehqon, mulkdor, ruhoniyligi, kambag'al va o'rtahol aholi vakillari kiritilgan edi. O'zbekiston SSRda sovet rejimi tomonidan siyosiy qatg'onlik dastlab davlat boshqaruvi, ta'lim tizimi hamda sud organlarida boshlangan [11, b.434].

Qatag'on siyosati oqibatida:

- Insonlar hayoti va erkinliklari ustidan kuchli bosim;
- Majburiy mahnatga jalb etish;
- Turli g'oya va xatti-harakatlar ustidan nazorat;
- Ijtimoiy guruhlar o'rtasida o'zaro adovat ruhi;
- Jamiyat axloqi buzilishi, milliy va diniy qadriyatlar inqirozi, ommada ruhiy hamda ijtimoiy qo'rquvning yoyilishiga olib keldi.

Bir qator adabiyotlarda qatag'on siyosati oqibatlari turlicha yoritilib kelingan.

Jumladan:

- Jamiyat yoki xalqda ertangi kunga bo'lgan ishonchszilikning ortishi;
- Mustabid mafkura kuchining saqlanishi;
- Murakkab va ziddiyatli qarama-qarshiliklarning namoyon bo'lishi – "ozgina uchqun bilan tezda alanga olish" ehtimolining yuqoriligi;
- Keng tarqalgan qo'rquv va vahima;
- Hukmron repressiv siyosat;
- Xalq kayfiyatidagi tushkunlik kabilari [12, b.457].

Xulosa qilib aytganda Sovet davrida qatag'on siyosati xalqni xalq, millatni millat, insonni insoniylikdan ayirdi. Qatag'on davlat tuzumining ommaviy jazolash, qiyonoqqa solish, begunoh xalqni asoratda, tutqinlikda ushlab turish, qo'rqtish, bosim, tayziq o'tkazish quroliga aylanadi.



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolid A. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob (tarjimon Sardor Salim). – Toshkent, “Akademnashr”, 2022. – 424 б.
2. Сургун. (Биринчи китоб). – Тошкент, Faafur Fulom nomidagi adabiёт va san'yat nashriёti, 2000. – 96 б.
3. Курбонов X. Қуйи Зарапшон воҳасида амалга оширилган қатағонлик сиёсати ва унинг оқибатлари (1929-1938 йиллар). – Тошкент, “Маънавият”, 2021. – 200 б.
4. Қор қўйнида лолалар. (Қатагон этилган аёллар ҳақида очерклар) – Тошкент, “Академия”, 2001. – 213 б.
5. Каримов Н. 1937-1938 йиллардаги “катта қирғин”нинг фожиали оқибатлари. – Тошкент: “Фан”, 2015. – 163 б.
6. Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (Биринчи китоб). – Ташкент, “Шарқ”, 2012. – 432 б.
7. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари (1937 йил 10 август - 5 ноябр). (Иккинчи китоб). – Ташкент, “Шарқ”, 2007. – 496 б.
8. Каримов Н. “Катта қирғин”нинг келиб чиқиши сабаблари ва омиллари. – Тошкент, “Фан”, 2013. – 128 б.
9. Тарихнинг номаълум саҳифалари. (Илмий мақолалар. Ҳужжат ва материаллар. Хотиралар). Тўртинчи китоб. – Ташкент, Faafur Fulom nomidagi nashriёт-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 280 б.
10. Ирзаев Б. “Катта қирғин”нинг келиб чиқиши арафасидаги сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий шароит. – Тошкент, “Фан”, 2014. – 56 б.
11. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). К. 1. (Ўзбекистон 1917-1939 йилларда). – Тошкент, “O‘zbekiston”, 2019. – 560 б.
12. Ўзбекистон тарихи II жилд (XIX asr 2-ярми - 1991 йил август). – Тошкент, ЎзМУ nashriёti, 2015. – 457 б.